



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 07 | pp. 117-121 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIDA SOLIQLAR ROLINI OSHIRISH YO'LLARI



Zarif Oripovich Axrorov

i.f.d., professor v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali, e-mail: z.akhroroff@gmail.com

Jasmina Jasurovna Baxtiyorova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat budjeti daromadlari tarkibida soliqlarning mohiyati, soliq mexanizmining hozirgi sharoitdagi ta'siri, hozirgi vaziyat tahlili, soliqlar orqali tartibga solishning iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish omillar tahlili keltirilgan. Shuningdek, davlat byudjeti daromadlarida soliqlar rolini oshirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, soliq, soliq mexanizmi, soliqlar orqali tartibga solish, soliq siyosati.

Аннотация. В статье рассматривается сущность налогов в доходах государственного бюджета, влияние налогового механизма в современных условиях, анализ текущей ситуации, анализ факторов, влияющих на налоговое регулирование экономических процессов. Также даны выводы и предложения по повышению роли налогов в доходах государственного бюджета.

Ключевые слова: государственный бюджет, налог, налоговый механизм, налоговое регулирование, налоговая политика.

Abstract. The article examines the essence of taxes in state budget revenues, the impact of the tax mechanism in modern conditions, the analysis of the current situation, the analysis of factors influencing tax regulation of economic processes. Conclusions and proposals for increasing the role of taxes in state budget revenues are also given.

Key words: state budget, tax, tax mechanism, tax regulation, tax policy.

1. Kirish

Har qanday taraqqiyotni soliqlarsiz, aniqrog'i soliqlar orqali tartibga solish mexanizmlari ta'sirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish sharoitida respublikamiz o'zining davlat ilmiy-texnik va innovasion byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirishga alohida e'tibor qaratgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir" [1].

Iqtisodiyotni integrasiyalashuvi va globallasuvi tobora kuchayib borayotgan sharoitda soliqlar orqali tartibga solish mexanizmi uning imkoniyatlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi hamda raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilishi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solish mexanizmi mamlakat ijtimoiy iqtisodiyotini rivojlantiruvchi shartlardan biri bo'lib qolishi lozim. Hozirda soliqlar orqali tartibga solish mexanizmini takomillashtirish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni dunyo andozalari darajasiga ko'tarilish mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmog'i lozim.

Mamlakatdagi infratuzilmalarni raqobatbardoshligini sifatli innovasion mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan ta'minlashda, tarkibiy qayta qurishlarni amalga oshirishda soliqlar orqali tartibga solish mexanizmi o'ta muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ma'lumki, soliqlar orqali tartibga solish keng ma'noda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida dolzarbdir.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Maxsus iqtisodiy adabiyotlarda, kundalik hayotimizda, turli axborot vositalarida turmush tarziga kirib kelayotgan va asosiy terminlarga aylanayotgan "soliq mexanizmi", "soliq mexanizmini tashkil etish", "soliq menejmenti", "soliqlar orqali boshqarish", "soliq mexanizmi elementlari", "innovasion soliqlar mexanizmi" va shu kabi boshqa terminlarning mazmuni va ularning amal qilish xususiyatlari bilan bog'liq munosabatlarga va jarayonlarga duch kelish holatlari yuzaga keldi.

Rus olimi T.F. Yutkina "soliqlar orqali tartibga solish - bu investision jarayonlarga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish, tarmoqlarda texnologiyalarni yangilash, byudjetni balanslashtirish, ichki soliqlar munosabatlarini boshqarishdir" [2] deb fikr bildiradi.

L.V. Dukanich tomonidan yozilgan kitobda soliqlar orqali tartibga solishga quyidagicha ta'rif berilgan: "Soliqlar orqali tartibga solish – qonunchilik amalga oshirilishi ta'minlangan byudjet-soliq vazifalari va ular uchun qabul qilingan soliqlar konsepsiyalarini qabul qilishga qaratilgan boshqaruv jarayonining ajralmas qismidir" [3].

S. Barulin soliqlar orqali tartibga solishni amaliyotda soliqlar vazifalari va soliqlar konsepsiyalarini qabul qilish doirasida turli foydali ish koeffitsientlaridan foydalanishda soliqlar orqali tartibga solish imkoniyatlaridan foydalanishda shaxslarning sub'ektiv faoliyati sifatida e'tirof etadi [4].

S.Giyasov soliqlar orqali iqtisodiyotni tartibga solishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etib, davlat tomonidan soliqlar mexanizmidan foydalanishning iqtisodiy ahamiyatini ilmiy asoslagan, shuningdek, O'zbekistondagi amaldagi holat va ilg'or xalqaro amaliyot tahlil qilingan [12]. Shuningdek, iqtisodchi olim soliqlar vocitacida tartibga solish – ishlab chiqarish jarayonlariga tezkor aralashuviga qaratilgan iqtisodiy choralar tizimi ekanligi e'tirof etib, u iqtisodiy acoclanganlik, moliyaviy maqcadga muvofiqlik va manfaatlar tengligi kabi tamoyillariga acoclanadi, deya ta'kidlaydi [13].

Z.Axrarov soliqlar orqali tartibga solish - byudjetga soliqlar tushumlarini ta'minlash va shu bilan birga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning foydaning bir qismini qayta taqsimlash orqali sanoat korxonalarining innovasion va investision faoliyatlarini rag'batlantirish ekanligini ta'kidlaydi [5].

Yuqoridagilar munosabatlaridan davlat budjeti tarkibida soliqlar rolini oshirishda iqtisodiy munosabatlarni soliqlar orqali tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash usullaridan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizasiya va diversifikasiya qilish, texnik-texnologik yangilash, uning raqobatbardoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, importbop tovarlar ishlab chiqarish, aholining to'lov qobiliyatini oshirish, xo'jalik sub'ektlarining samaradorligini oshirish, investisiya oqimlarini turli manbalardan kirib kelishini, innovasion mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish kabi vazifalarni hal etilishi soliqlar orqali tartibga solish mexanizmini oqilona boshqarilishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlis palatalariga qilgan Murojaatnomasida "Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Byudjet hisobidan mablag' ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko'rsatkichlaridan iborat, natijaga yo'naltirilgan indikatorlari bo'lishi kerak" [6] deb ta'kidlab o'tdi. Bu esa, byudjet siyosati oldida turgan vazifalarning nechog'li dolzarb ekanligini aks ettiradi.

Ushbu fikrdan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari aniq belgilash va unga qaratilgan vazifalar doirasida ilmiy-innovasion faoliyatni uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan tashkiliy sharoitlarda raqobatli bo'lishligini ta'minlash bir vaqtning o'zida soliqlar orqali tartibga solish mexanizmini takomillashtirib borilishi uning huquqiy asoslarini ham rivojlantirilib borilishi bilan e'tiborli bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solish mexanizmini huquqiy asoslarini rivojlantirishda iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishda va turli xil raqobatbardosh mahsulot (tovar, xizmat)lar bilan bozorni to'yintirishda katta ahamiyat kasb etmog'i lozim.

Soliq mexanizmi mohiyatini talqin etishda asosan 6 ta yo'nalishdagi nazariy qarashlar mavjud:

- soliqlar mexanizmi tarkibi va mohiyati, shuningdek uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishdagi vazifalari [7];
- soliqlar mexanizmlari orqali iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash [8];
- soliqlar orqali tartibga solish ob'ektlari va kriteriyalarini aniqlash [9];
- byudjetga soliqlar va majburiy to'lovlar;
- soliqlar imtiyozlarini taqdim etish tartibi, shuningdek, qo'llanishi mumkin bo'lgan sanksiyalar, ma'muriy jarimalar [10];
- soliqlar miqdorini optimallashtirish [11].

Qayd etilgan 6 ta talqin bir-biriga bog'liqdir, ammo ular soliqlar orqali tartibga solish mexanizmi mohiyatini, xususiyatlarini va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini to'liq uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali ochib bera olmaydi.

Masalan, mexanizm bu texnik sohalardan iqtisodiyot sohasiga kirib kelgan iqtisodiy voqelik bo'lsada, mexanizm so'zi mazmun-mohiyatiga xususiyatidan kelib chiqib elementlardan, usullardan, prinsiplardan iqtisodiyotda rasional foydalanishni

anglatadi. U sub'ektiv tushuncha sifatida iqtisodiy prinsiplar mohiyati bilan bog'liq bo'lmagan holda davlatning xohishi bilan amal qiladi. Shu bois davlat soliq elementlariga nisbatan qo'shimchalar kiritilishi yoki samara bermaydigan soliq elementini soliq munosabatlarini shakllantiruvchi omillar tarkibidan chiqarishi mumkin. Shu bois ham yuqorida mexanizm soliq siyosatini maqsadga erishilishini ta'minlovchi soliq munosabatlarining qoidalari va vositalari yig'indisi deb ta'kidlab o'tilgan edi. Bu bejis emas, albatta.

Soliqlar orqali tartibga solish mexanizmini tashkil etish shunday bir soliq munosabatlarini yaratilishini anglatadiki, qaysikim iqtisodiy jihatdan (ammo ma'muriy emas) shunday bir muhitni yuzaga keltiradiki, unda davlat, korxona va ishchi manfaatlarini bir chiziqda kesishi ta'minlanadi. Aynan ularni bir nuqtaga tutashtirish evaziga ishlab chiqarish samaradorligi, innovasion taraqqiyot, ijtimoiy sohalarda esa sinergetik samara ta'minlanadi.

Biz soliq mexanizmi haqida gapirganimizda soliq elementlarini, usullarini va amal qilish prinsiplarini bevosita ko'z oldimizga keltirishga harakat qilamiz. Ammo bunday harakatlarimizni to'laqonli to'g'ri, unga asoslanib soliqlarni tartibga keltirish mexanizmlari samara bermoqda deb fikr bildirish soliq murakkabliklarini yanada murakkablashib ketishiga ham sabab bo'lishi ham mumkin.

Bizningcha, iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solish mexanizmining asosiy maqsadlari qatoridan iqtisodiy sikl tebranishlarini yumshatish, barqaror YaIM o'sishini ta'minlash, inflyasiyaning mo'tadil darajasi sharoitida bandlikning yuqori darajasini ta'minlash ham joy olmog'i lozim. Iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi soliqlar orqali tartibga solish mexanizmi ta'sirida makroko'rsatkichlarni to'liq dinamik siljishlari uchun imkoniyat yaratib berdi.

Karantin sharoitida bosib o'tilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lining monitoringi, hozirgi pandemiya koronavirusi sharoitida (KOVID-19) jahon bozori kon'yukturasi keskin o'zgarib raqobat muhitini yanada kuchaytirib borish uchun davlatimiz yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondoshuv orqali soliqlar orqali tartibga solish mexanizmlarini hayotchanlik darajasini saqlab qolish va takomillashtirib borishni taqozo etadi.

5. Xulosa va takliflar

Hozirgi sharoitda soliq tizimida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb xisoblaymiz.

Birinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash talablariga to'liq javob bera oladigan soliq tizimini yuzaga keltirish va amalda joriy etish. Buning uchun esa, rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimini o'rganish tajribalari asosida amalga oshirish lozim.

Ikkinchidan, iqtisodiyotda sog'lom raqobatni muhitini ta'minlash maqsadida soliq yuki adolatli taqsimlanishi lozim.

Uchinchidan, soliq tizimida bajarilgan ishlar asosan iqtisodiy-ijtimoiy va geografik joylashuv shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilmog'i lozim.

To'rtinchidan, soliq munosabatlarining rivojlanish jarayoni iqtisodiy munosabatlarning qarama-qarshiliklarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Shu shartdagina, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish chora-tadbirlari samarali hisoblanadi va belgilangan vazifalar bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Халқ сўзи. 2017 йил 16 январь. – 2-б.
2. Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение. Учебник. – М.: ИНФРА-М., 2000. – с. 384-393
3. Дуканич Л.В. Налоги и налогообложение. – Р/н/Д: Феникс, 2010. – с. 414
4. Барулин С.В. Налоговый менеджмент. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2007. – с. 194
5. Ahrorov Z. Issues of Regulation of the Economy through Taxes. //“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2020 йил. - 12 б.
6. Мирзиёев, Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси. 2018 йил 29 декабрь. № 271- 272 (7229-7230)
7. Маликов Т.С., Жалилов П.Т. Бюджет-солиқ сиёсати. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-moliya, 2011. – 450 б.
8. Ниязметов И.М. Солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш орқали солиқ тизими барқарорлигини таъминлаш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) дисс.авт. – Т.: 2018. – 70-б.
9. Мейлиев О.Р. Ҳудудий иқтисодиёт барқарорлигини таъминлашда солиқларнинг таъсирчанлигини ошириш масалалари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.авт. – Т.: 2018. – 56-б.
10. Нормурзаев У.Х. Солиқ имтиёзларидан самарали фойдаланиш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.авт. – Т.: 2020. – 57-б.
11. Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) дисс.авт. – Т.: 2018. – 72-б.
12. Гиясов С.А. Иқтисодиётни солиқлар воситасида тартибга солиш. Монография. – Т.: Инновацион ривожланиш, 2023. – 148 б.
13. Гиясов С.А. Инновацион иқтисодиётни ривожлантиришда солиқ механизмидан самарали фойдаланиш. //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий-электрон журнали. 2021 йил. 2-сон. – 364 б.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

